

IXTISOSLASHGAN VA ODDIY MAKTAB:

farq nimada?

SAVOL: - Ixtisoslashtirilgan maktab bilan oddiy maktab o`rtasidagi asosiy farq nimalarda namoyon bo`ladi? Ixtisoslashtirilgan sinf bilan oddiy sinflarning o`ziga xosliklari haqida ma'lumot bersangiz?

Z.KARIMOVA,

uy bekasi

Navoiy shahri

JAVOB: - Ixtisoslashtirilgan maktablarga o`quvchilar iqtidoriga ko`ra, ma'lum fanga yo`naltirilgan ta'lim muassasalari (yoki sinflar)ga sinov asosida qabul qilinadi.

Chuqurlashtirilib o`qitiladigan fanlarga oddiy maktablarga nisbatan haftasiga ko`proq soat ajratiladi va ushbu fanlar guruhlariga bo`lib o`qitiladi. Fanlarni o`qitishda faqat oliy va birinchi malaka toifasiga ega bo`lgan o`qituvchilar dars o`tishi belgilangan.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 7 avgustdagi 173-sonli qaroriga asosan chuqurlashtirilgan fanlardan dars o`tadigan o`qituvchilar va maktab rahbar xodimlarining oylik maoshiga davlat tomonidan o`rnatilgan tartibda belgilangan miqdorda ustama haq beriladi.